# YASHIL
## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

2026-YIL / IYUN/6-SON, VI-QISM

Google Scholar
OpenAIRE
ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982
https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

# YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun. VI-qism*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**



**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin oʻgʻli,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshligʻi
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI ....12
**Abdullayev Azamat Akbar o'g'li**

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА ....17
**Джуманиязова Сабина Михайловна**

PAXTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQISH ....22
**Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich**

O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR ....29
**Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li**
**Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li**

TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS ....32
**F. Djalilov**

O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH ....41
**Abdullayev Axror Jaxbarovich**

ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ....47
**Махкамова Надира Саидмуратовна**

MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIKLARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA) ....55
**Ergashev Sherali Erali o'g'li**

BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODELDAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020–2024-YILLAR) ....60
**Ergashev Sherali Erali o'g'li**

IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH ....65
**Tashmatov Shuhrat Hamrayevich**

MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI ....71
**Xalimov Shaxboz Xalimovich**

O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI ....77
**Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna**
**To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li**

SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI ....83
**Hamidova Shahzoda Odiljanovna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI ........ 88
Sabirova Nodira Komil qizi

RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI ........ 95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi

XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI ........ 101
Avazbek Xalbekov

# XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI

**Avazbek Xalbekov**
**TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi mustaqil tadqiqotchisi,**
**Barqaror rivojlanish markazi bo'lim boshlig'i**
**ORCID: 0009-0003-2673-7377**
**E-mail: avazbek.khalbekov@mail.ru**

**Annotatsiya:** Dunyodagi vaziyat, global noaniqliklar va tashqi iqtisodiy ta'sirlar sharoitida hududlar iqtisodiy barqarorligini ta'minlash hamda mintaqaviy rivojlanishga moslashuvchan iqtisodiy mexanizmlar va maqsadli qo'llab-quvvatlash vositalarini ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida barqaror iqtisodiy rivojlanish tamoyillarini hududlarda keng ko'lamda amalga oshirish mamlakat va uning mintaqalari uchun ilmiy-texnologik taraqqiyot sur'atlarini jadallashtirishga asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishni tarkibiy va texnologik jihatdan takomillashtirish bilan chambarchas bog'liq. Xususan, respublikaning muhim hududlaridan biri bo'lgan Xorazm viloyatining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va amaliy tahlillarni olib borish, ustuvor yo'nalishlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.
**Kalit so'zlar:** Xorazm viloyati, barqaror rivojlanish, hududlar, diversifikatsiya, davlat tomonidan tartibga solish, transformatsiya, amaliy model, o'sish nuqtalari.
**Abstract:** In the context of global uncertainties and external economic impacts, ensuring the economic stability of regions increases the need to develop flexible economic mechanisms and targeted support instruments adapted to regional development. In the context of reforms being implemented in Uzbekistan, the broad application of sustainable economic development principles in the regions is closely linked with the structural and technological improvement of social production based on accelerating scientific and technological progress in the country and its regions. In particular, conducting scientific research and practical analysis aimed at ensuring the economic stability of Khorezm region, one of the important regions of the republic, and identifying priority areas are of significant importance.
**Keywords:** Khorezm region, sustainable development, regions, diversification, state regulation, transformation, practical model, growth points.
**Аннотация:** В условиях глобальной неопределённости и внешних экономических воздействий обеспечение экономической устойчивости регионов повышает необходимость разработки гибких экономических механизмов и целевых инструментов поддержки, адаптированных к региональному развитию. В условиях проводимых в Узбекистане реформ широкое внедрение принципов устойчивого экономического развития в регионах тесно связано со структурным и технологическим совершенствованием общественного производства, основанным на ускорении научно-технологического прогресса страны и её регионов. В частности, важное значение имеет проведение научных исследований и практического анализа, направленных на обеспечение экономической устойчивости Хорезмской области как одного из важных регионов республики, а также определение приоритетных направлений.
**Ключевые слова:** Хорезмская область, устойчивое развитие, регионы, диверсификация, государственное регулирование, трансформация, практическая модель, точки роста.

## KIRISH

Bugungi kunda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy-ekologik tizimlarini modernizatsiya qilishning dolzarbligi mintaqalarda iqtisodiy o'sish uchun o'ziga xos sharoitlarning paydo bo'lishi, iqtisodiy integratsiya jarayonlari va dunyoning aksariyat mamlakatlari hamda mintaqalarida barqaror rivojlanish konsepsiyasining nazariy asoslari ustunligini hisobga olgan holda belgilanmoqda. Hududlarda barqaror iqtisodiy rivojlanish muammolari ma'naviy munosabatlar o'zgarishining murakkab va beqaror davrida alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa mintaqaviy iqtisodiy tizimlarning ijtimoiy va iqtisodiy tuzilishi mohiyatini o'rganishni talab qiladi. Shunga ko'ra, mintaqaning

barqaror iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha tadqiqotlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biri barqaror hududiy rivojlanish modelini yaratishdir.

Shu nuqtai nazardan, hududlarda barqaror rivojlanish masalalarini ta’minlash uchun moslashuvchan mexanizmlar va tegishli vositalarni ishlab chiqish talab qilinadi. O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy rivojlanish tamoyillarini amalga oshirish istiqbollarini mamlakat ichida amalga oshirilayotgan bozor islohotlaridan alohida ko‘rib chiqish noo‘rin, albatta. Barqaror rivojlanishga o‘tish butun mamlakat va uning alohida hududlari uchun ham ilmiy va texnologik taraqqiyotni tezlashtirishga asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishni tubdan tarkibiy hamda texnologik qayta qurish bilan chambarchas bog‘liq.

Yangi O‘zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida hududlarni barqaror rivojlantirish bo‘yicha oqilona iqtisodiy siyosatni amalga oshirish natijasida “...barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash”, bu sohada “2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish” masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ammo respublikamizning yetakchi viloyatlaridan sanalgan Xorazmda olib borilayotgan islohotlar orqali so‘nggi besh yilda qator ijobiy natijalarga erishilgan bo‘lishiga qaramasdan, mavjud ichki resurs salohiyatidan samarali foydalanish borasida turli darajadagi nomutanosibliklar mavjudligi sababli barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlash masalasi muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri sifatida qolmoqda. Shu sababli viloyat iqtisodiyoti tarmoqlari va tumanlariga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish hamda sanoat kooperatsiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish vazifalarining belgilab qo‘yilishi mavjud iqtisodiy salohiyatdan potensial darajada samarali foydalanish masalasini hozirgi kundagi eng muhim ilmiy-amaliy masalalardan biriga aylantirmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Olib borilgan ilmiy manbalar tahlili ko‘rsatdiki, hududlarni barqaror iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi bugungi kunga kelib yetarlicha ishlab chiqilmaganligidan dalolat bermoqda. Hududlarni barqaror va samarali iqtisodiy rivojlantirish amaliy dasturlarining yagona yondashilgan tamoyillari ishlab chiqilmagan va mintaqa iqtisodiy tizimlarining real holatiga moslashtirilmagan dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu holat turli darajadagi iqtisodiy tizimlar, xususan, mintaqa darajasidagi iqtisodiy tizimlar uchun rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish uchun samarali iqtisodiy yechimlarni izlashni taqozo etadi.

MDH iqtisodchi olimlaridan S. Chernix mintaqani barqaror rivojlantirishda davlat ta’sirining turli vositalarini tartibga solish va boshqarish o‘rtasidagi farqni aniqlashning asosiy mezoni, birinchi navbatda, vakolatli davlat organlarining ta’sir obyektiga nisbatan turlari, yo‘nalishi va vakolat doirasiga bog‘liqligini ko‘rsatib o‘tadi [1].

Xorijlik iqtisodchi olimlardan L. Shi, L. Han va boshqalar ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish orqali hududlarni barqaror rivojlantirish sohasidagi tadqiqotlarning holati va tendensiyalarini o‘rganganlar. Shuningdek, ular mazkur yo‘nalishlarda mintaqa barqaror rivojlanishiga, kichik va o‘rta korxonalarni barqaror rivojlantirishni boshqarish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror turizm va barqarorlikni baholash jarayonlariga e’tiborni qaratdilar [2].

Xorij iqtisodchi olimlaridan Simon Drezner mintaqalarning barqaror rivojlanishi fanlararo sohasi uchun qulay va keng qamrovli ma’lumotlarga asoslanganligini hamda uni chuqur tahlil qilish zarurligini ko‘rsatib o‘tadi. Shuningdek, barqaror rivojlanish faqatgina iqtisodiy ko‘rsatkichlarga emas, balki boshqa ko‘rsatkichlarga ham bog‘liqligini tadqiqot ishida belgilab beradi [3].

Mamlakatimiz mahalliy iqtisodchi olimlaridan A. N. Nigmatov, N. S. Shivaldova va R. N. Sultonovalar tomonidan “Barqaror rivojlanishning ekologik jihatlari” qo‘llanmasida hududni rivojlantirishning ekologik jihatlariga keng o‘rin berilgan bo‘lsa [4], boshqa mahalliy iqtisodchi olimlardan S. Mamashokirov va E. Usmonovlar tomonidan “Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalari” qo‘llanmasida esa ekologik xavfsizlik jihatlari o‘rganilgan [5]. Ayrim mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan A. Nigmatov, R. Kulmatov, A. Rasulov, Sh. Muxamedovlar “Barqaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari” nomli monografiyasida hududni barqaror rivojlantirishda ularning salohiyatini tavsiflovchi indikator ko‘rsatkichlariga alohida e’tibor qaratish lozimligi ko‘rsatib beriladi [6].

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, hududlarni barqaror iqtisodiy rivojlantirish va ularning kutilmagan holatlarda, tashqi ta’sirlar davrida islohotlarni olib borish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va bir-birini to‘ldiruvchi o‘ziga xos xususiyatlarni tushunish uchun barqaror rivojlantirish siyosatini davlat tomonidan tartibga solish usullari va vositalari bilan birgalikda amalga oshirish zarurati haqidagi metodologik tamoyillarnigina uchratish mumkin.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, mamlakat barqaror rivojlanishi va uning taraqqiyoti eng avvalo hududlarda olib borilayotgan islohotlar natijasi hamda yaratilayotgan YaHMning pirovard natijasi bilan bevosita bog'liq. Ta'kidlash o'rinliki, hozirgi kunda har bir mintaqa sanoatini fan-texnikaning zamonaviy yutuqlaridan foydalangan holda rivojlantirish dolzarb vazifadir. Xorazm viloyatida oziq-ovqat, yoqilg'i, mashinasozlik tarmoqlarida modernizatsiyalash bo'yicha yuqori texnologiyalarning joriy etilishi so'nggi yillarda sanoatda mehnat unumdorligining barqaror oshishini ta'minlab kelmoqda. Sanoat ishlab chiqarish quvvatlarining oshishi mintaqaning YaHM tarkibida sanoat hissasi oshishiga sabab bo'lmoqda.

Milliy iqtisodiyotda bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida hududlar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi strategiyasini belgilab olish, hududiy rivojlanishning amaliy modelini ishlab chiqishni obyektiv zaruriyatga aylantirmoqda. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, hududlarni barqaror rivojlantirishda foydalanilmayotgan zaxira va imkoniyatlarni aniqlash hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan hududiy dasturlar ishlab chiqish mexanizmini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi "2022–2026-yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 154-son qarori qabul qilindi. Qarorda:

– viloyat aholi turmush sharoitiga ta'sir ko'rsatayotgan mavjud muammolarni tezkor bartaraf etishga qaratilgan "yo'l xaritasi"ni tuzish, Xorazm viloyati shahar va tumanlarining ixtisoslashuvi, "o'sish nuqtalari" va "drayver sohalari";

– sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalarining yig'ma parametrlari;

– 2022-yilda Xorazm viloyatida muhandislik-kommunikatsiya, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish hamda ijtimoiy soha obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash bo'yicha kompleks tadbirlar;

– Xorazm viloyatining shahar va tumanlarida ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha shakllantirilgan istiqbolli loyihalarning manzilli ro'yxatini tuzish kabi masalalar qabul qilindi [7].

Qishloq xo'jaligi, yirik sanoat korxonalari, transport-kommunikatsiya tizimi, kichik biznes salohiyati tufayli Xorazm viloyati mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda muhim ahamiyatga ega. Keyingi yillarda viloyatda yangi korxonalar, kichik biznes subyektlari, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari tashkil etilgan. Turizm, to'qimachilik sanoati, baliqchilik, parrandachilik, irrigatsiya va boshqa sohalarda istiqbolli loyihalar amalga oshirilgan.

1-jadval
Xorazm viloyatining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari[1]

| Ko'rsatkichlar | O'lchov birligi | 2020 yil | 2021 yil | 2022 yil | 2023 yil | 2024 yil | 2025 yil |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Yalpi hududiy mahsulot | mlrd so'm | 23531,8 | 29737,2 | 37474,3 | 43666,7 | 53 640,0 | 62 987,5 |
| | o'sish sur'ati, % | 99,5 | 111,1 | 107,1 | 104,8 | 106,3 | 107,9 |
| Sanoat mahsuloti | mlrd so'm | 9615,9 | 13658,1 | 18323,3 | 21589,1 | 8 250,1 | 9 487,6 |
| | o'sish sur'ati, % | 106,1 | 117,2 | 115,0 | 106,4 | 108,2 | 108,4 |
| Iste'mol tovarlari | mlrd so'm | 7745,8 | 8591,6 | 10277,4 | 13115,7 | 17562,5 | 20812,6 |
| | o'sish sur'ati, % | 100,1 | 117,2 | 124,9 | 105,8 | 107,2 | 108,8 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | mlrd so'm | 16957,6 | 20327,9 | 24610,4 | 27814,9 | 17 982,9 | 20 190,5 |
| | o'sish sur'ati, % | 102,4 | 103,4 | 103,4 | 104,4 | 103,0 | 104,8 |
| Qurilish ishlari | mlrd so'm | 2856,8 | 4228,5 | 4878,4 | 5766,1 | 4 767,9 | 5 871,4 |
| | o'sish sur'ati, % | 97,4 | 130,9 | 101,8 | 107,1 | 111,4 | 114,0 |

1 Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, hududning iqtisodiy rivojlanish dinamikasi jadal rivojlanish tendensiyalarini ko'rsatadi. Bunda 2020–2025-yillar ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yalpi hududiy mahsulot 2020-yilda 99,5 foizni, sanoat mahsulotlari 106,1 foizni, iste'mol tovarlari 100,1 foizni, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 102,4 foizni, qurilish ishlari esa 97,4 foizni tashkil etgan. So'nggi besh yil ichida, ya'ni 2025-yilga kelib, yalpi hududiy mahsulot 107,9 foizni, sanoat mahsulotlari 108,4 foizni, iste'mol tovarlari 108,8 foizni, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 104,8 foizni, qurilish ishlari esa 114,0 foizni tashkil etgan [8].

Globallashuvning kuchayishi natijasida yuzaga kelgan jahon iqtisodiyotining hozirgi holati tabiiy ravishda boshqa davlatlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston iqtisodiyoti va uning hududlari uchun kelajakda barqaror rivojlanishni ta'minlashda yangi muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun yangi iqtisodiy o'zgarishlarni tushunish, barqaror hududiy rivojlanishni ta'minlash usullari va yondashuvlarini aniqlash bugungi kunning asosiy vazifasi hisoblanadi. Xorazm viloyatini iqtisodiy rivojlantirishdagi yetakchi tarmoq hisoblangan agrar sohani modernizatsiya qilish, shuningdek, sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirish va investitsion muhitni yaxshilash orqali hududning iqtisodiy salohiyatini oshirish mumkin. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash aholi bandligini ta'minlash va daromadini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish orqali hudud iqtisodiyotining o'sishiga erishish muhim hisoblanadi.

Hududda iqtisodiy o'sish kuzatilayotgan bo'lsa-da, muayyan sohalarda bir qator muammolar mavjud. Jumladan, qishloq xo'jaligining modernizatsiya qilinmaganligi va yangi qishloq xo'jaligi texnologiyalarining yetarlicha jalb etilmaganligi shular jumlasidandir. Ushbu muammolarni bartaraf etish orqali qishloq xo'jaligi samaradorligini yanada oshirish imkoniyati mavjud. Bunda qishloq xo'jaligida zamonaviy irrigatsiya usullari, pestitsidlar va o'g'itlardan keng foydalanish orqali hosildorlikni oshirish mumkin. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va ularni eksport qilish orqali qo'shimcha daromadga ega bo'lish mumkin. Fermerlar va qishloq xo'jaligi korxonalarini arzon kreditlar hamda subsidiyalar bilan ta'minlash zarur. Viloyatda sanoat tarmoqlari yetarlicha diversifikatsiya qilinmaganligi bois yangi tarmoqlarni, jumladan, kimyo, elektronika va yengil sanoat sohalarini rivojlantirish orqali viloyat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish mumkin. Kimyo sanoatida o'g'itlar, plastmassa va boshqa kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish, elektronika va maishiy texnika ishlab chiqarish sohalarida yangi korxonalar ochish, to'qimachilik, tikuvchilik va poyabzal ishlab chiqarish kabi tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Xorazm viloyati O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati qishloq xo'jaligiga asoslangan hududlaridan hisoblanadi. Viloyatda asosan g'alla, paxta, meva-sabzavotlar yetishtiriladi hamda an'anaviy qishloq xo'jaligi tarmoqlari rivojlangan. 2025-yil moliyaviy yil yakunlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu davrda qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 34 trln 643 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2022-yilning shu davriga nisbatan 104,4 foizga ko'payib, 2022-yilda esa hududda qishloq xo'jaligi mahsulotlari 23 trln 144,5 mlrd so'mni tashkil etgan edi.

2-jadval.
Xorazm viloyatining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini 2020-2025-yillardagi o'sish sur'atlari, mlrd. so'm[8]

| Ko'rsatkichlar | 2020 yil | 2021 yil | 2022 yil | 2023 yil | 2024 yil | **2025 yil** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Qishloq xo'jaligi mahsulotlari | 16258,9 | 19311,7 | 23144,5 | 26246,4 | 20807,9 | 34 643.0 |
| Shu jumladan, | | | | | | |
| Dehqonchilik | 7306,7 | 8649,5 | 10676,7 | 11983,1 | 8510,5 | 14 160,8 |
| Chorvachilik | 8952,2 | 10662,2 | 12467,8 | 14263,3 | 12297,4 | 20 482,2 |
| Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda | 101,7 | 102,9 | 103,9 | 104,4 | 102,3 | 104,9 |

Shu bilan birga, Xorazm viloyatining sanoat sohalari taraqqiyoti nuqtayi nazaridan rivojlanish dinamikasi yuqori ekani kuzatilmoqda. Hududda bir qator sanoat tarmoqlari faoliyat yuritib, ularga oziq-ovqat, ichimliklar va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish kabilar kiradi. 2025-yil yakunlariga ko'ra, hududda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 47 trln 569 mlrd so'mni tashkil etgan. Ichimliklar ishlab chiqarish 3 trln 292,4 mlrd so'mni, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish esa 4 trln 687,3 mlrd so'mni tashkil qilgan.




**1-rasm. Xorazm viloyatining sanoat mahsulotlarini o‘sish sur’atlari, mlrd.so‘m**[8]

Shunga ko‘ra, Xorazm viloyatini barqaror rivojlantirishda eng avvalo muhim vazifalarni belgilab olish va shunga mos takomillashgan tashkiliy-iqtisodiy hamda moliyaviy mexanizm strategiyasini ishlab chiqish muhimdir. Xorazm viloyati iqtisodiyotidagi xizmatlar qiymatini baholash qiyin, chunki u jadal rivojlanayotgan iqtisodiyotning eng istiqbolli tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U transport, omborxona, pochta va kuryerlik faoliyati, vaqtinchalik turar joy va umumiy ovqatlanish, axborot faoliyati va telekommunikatsiyalar, ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalar, kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat, ma’muriy va yordamchi xizmatlar sohasidagi faoliyat, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy yordam, san’at, sport, ko‘ngilochar va dam olish va boshqalarni o‘z ichiga oladi. So‘nggi o‘n yilliklar jahon iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasi rolining oshishi bilan tavsiflanadi. Xorazm viloyatida ishlab chiqarish va tijorat tizimi sifatida xizmat ko‘rsatish sohasi ham faol rivojlanmoqda, bu yerda iqtisodiyotda band bo‘lganlarning 42,8 foizdan ortig‘i ishlaydi. Bugungi kunga kelib, Xorazm viloyati iqtisodiyotidagi tub o‘zgarishlar va muammolar xizmat ko‘rsatish sohasining muhim rolini yetarlicha baholamaslik muammosini yanada kuchaytirdi. Bu yangi iqtisodiy barqaror jamiyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida xizmat ko‘rsatish sohasining rolini aniqlash zaruratini tug‘dirdi.

Jahon iqtisodiyotida xizmatlar bozorining ortib borayotgan roli iqtisodchilarning xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlariga qiziqishi ortib borayotganini tavsiflaydi. Jahon iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasida eksport-import operatsiyalari hajmining doimiy o‘sishi ham kuzatilmoqda. Bunday dinamika jahon iqtisodiy tizimining globallashuv tendensiyasiga to‘liq mos keladi. G‘arb mamlakatlarida xizmatlar ko‘proq yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiradi va davlat iqtisodiy siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan birini tashkil qiladi. Xorazm viloyatida qurilish, transport, aloqa va moddiy ishlab chiqarishni ta’minlash sohasidagi xizmatlarning faqat kichik bir qismi YaIMga kiritilgan. Moddiy ishlab chiqarishdan farqli o‘laroq, nomoddiy xizmatlar uy-joy kommunal xo‘jaligi, maishiy xizmat ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash, ta’lim, jismoniy tarbiya va sport, madaniyat va san’at, fan hamda boshqa jami ijtimoiy mahsulot milliy ishlab chiqarish hajmiga kiritilmaydi. Bugungi kunda Xorazm viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi ishlab chiqarish hajmini oshiradigan iqtisodiyotning yagona tarmog‘i bo‘lib, ushbu korxonalar soni yildan-yilga o‘sib bormoqda.

Ta’kidlash o‘rinliki, 2025-yilda Xorazm viloyatida bozor xizmatlari umumiy hajmi 31 trln 797,5 mlrd so‘mni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich hududlar kesimida turlicha taqsimlangan bo‘lib, ayrim shahar va tumanlarda xizmatlar sohasi sezilarli darajada faol rivojlanmoqda. Eng yuqori ulush Urganch shahri hissasiga to‘g‘ri kelib, bu yerda bozor xizmatlari hajmi 7 trln 706,0 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bu viloyat markazida savdo, transport, moliyaviy va maishiy xizmatlar keng rivojlanganini ko‘rsatadi. Ikkinchi o‘rinda Xiva shahri bo‘lib, u yerda xizmatlar hajmi 1 trln 740,9 mlrd so‘mga yetgan. Turizm salohiyati yuqori bo‘lgan Xivada xizmatlar sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Keyingi o‘rinlarda Urganch tumani — 1 trln 489,9 mlrd so‘m, Hazorasp tumani — 1 trln 233,1 mlrd so‘m hamda Xonqa tumani — 1 trln 225,0 mlrd so‘m joy olgan. Ushbu hududlarda ham xizmatlar ko‘lamining izchil o‘sishi kuzatilmoqda. Shuningdek, Bog‘ot — 952,3 mlrd so‘m, Xiva tumani — 952,1 mlrd so‘m, Qo‘shko‘pir — 910,4 mlrd so‘m, Gurlan — 895,7 mlrd so‘m, Shovot — 879,9 mlrd so‘m hamda Yangiariq — 825,2 mlrd so‘m tumanlarida ham bozor xizmatlari salmoqli ulushni tashkil etgan. Ro‘yxatning oxirgi o‘rinlarida Yangibozor tumani — 680,9 mlrd so‘m va Tuproqqal’a tumani — 397,7

mlrd so‘m qayd etilgan. Mutaxassislar fikricha, hududlarda bozor xizmatlarini yanada rivojlantirish, kichik biznes va xizmat ko‘rsatish sohasini qo‘llab-quvvatlash orqali viloyat iqtisodiyotida yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish imkoniyati yanada kengayadi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda viloyatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda faoliyatning deyarli barcha turlari xizmat ko‘rsatish sohasi bilan bog‘liq, xususan, xizmatlar nafaqat an’anaviy servis kompaniyalari, balki o‘z tovarlariga kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat ko‘rsatadigan sanoat korxonalari tomonidan ham, transport xizmatlari, axborot ta’minoti, iste’molchilar va boshqalar bilan bog‘liq. E’tibor berib qaraladigan bo‘lsa, Xorazm viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi dinamik va ko‘p qirrali. Bu sohaning afzalligi shundaki, ishlab chiqarish siklining qisqarishi, faoliyatning bir sohasi doirasida differensiallashuvi va ixtisoslashuvi, ko‘plab xizmatlarning individualligi hamda standartlashtirilmaganligi hisobiga kapital aylanmasining yuqori tezligi kichik biznes subyektlarining faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari xalqaro savdo jarayonlarida faol ishtirok etadilar. Shu jihatdan ichki bozor ilm-fan, axborot texnologiyalari, dasturiy ta’minot, elektron va mobil tijorat va boshqalarni rivojlantirish hisobiga jahon bozoridagi ulushini oshirish uchun salmoqli salohiyatga ega. Bunday salohiyat iqtisodiyotni yuqori malakali kadrlar va tegishli moddiy-texnika bazasi bilan ta’minlash sharti bilan amalga oshiriladi. Viloyatning geografik joylashuvidan samarali foydalanish transport xizmatlari ko‘rsatishdan tushadigan daromadlarni oshirishga yordam beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorazm viloyati iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda, fikrimizcha, quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

– Xorazm viloyatida iqtisodiy o‘sish mavjud, ammo uni “samarali barqaror o‘sish” bosqichiga o‘tkazish lozim. Ma’lumki, 2025-yilda Xorazm viloyatining YaHM 62 987,5 mlrd so‘mni tashkil etib, o‘sish sur’ati 7,9 foizga yetgan. Bu ko‘rsatkich viloyatda iqtisodiy faollik saqlanayotganini, albatta, ko‘rsatadi, lekin iqtisodiy jihatdan barqarorlik ko‘rsatkichi faqatgina YaHM o‘sishi bilan emas, balki mehnat unumdorligi, eksport salohiyati, aholi daromadlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining faolligi bilan ham bog‘lanishi kerak;

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xomashyo sifatida sotish emas, balki qayta ishlash orqali qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish kerak. 2025-yilda Xorazm viloyatida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 104,8 foizga, sanoat 108,4 foizga, xizmatlar sohasi 108,8 foizga o‘sgan. Bu tarmoqlar o‘rtasida o‘sish borligini ko‘rsatadi, ammo agrar sektor sanoat va xizmatlar ko‘rsatkichlari bilan ham bog‘lanishi lozim;

– turizm sektori Xorazm viloyatining faol “o‘sish nuqtasi” sifatidagi asosiy yo‘nalishi bo‘lishi kerak. Chunki Xivadagi Ichan qal’a YUNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, bu Xorazm uchun xalqaro turizm, mehmonxona biznesi, hunarmandchilik, transport, umumiy ovqatlanish va madaniy xizmatlarni rivojlantirishda keng iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli Xorazm viloyati iqtisodiy barqarorligida turizm faqat madaniy-milliy obida obyektlari emas, balki xizmatlar qo‘shilgan qiymat zanjirini, jumladan, mehmonxona, gidlik, milliy hunarmandchilik, gastronomiya, ichki transport va raqamli bronlash tizimlarini birlashtiruvchi majmua sifatida rivojlantirilishi lozim;

– Xorazm viloyatida tumanlar kesimida ixtisoslashuv siyosatini takomillashtirish maqsadga muvofiq. Iqtisodiy barqarorlik uchun barcha tumanlarga bir xil sur’atdagi yondashuv yetarli samaradorlikni ta’minlamasligi mumkin. Shunday ekan, Urganch shahrida xizmatlar, ta’lim, logistika va ma’muriy markazlar; Xivada turizm va hunarmandchilik; Hazorasp va Tuproqqal’ada sanoat va logistika; Gurlan, Shovot, Qo‘shko‘pir, Yangiariq va Yangibozor tumanlarida esa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, agroservis va suv tejovchi dehqonchilik yo‘nalishlarini ustuvor qilib belgilash, fikrimizcha, maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Черных С. О соотношении процессов государственного управления и регулирования: теория и российская практика // Общество и экономика. – 2024. – № 5. – С. 15–26.
2. Shi L., Han L., Yang F., Gao L. The Evolution of Sustainable Development Theory: Types, Goals, and Research Prospects // Sustainability. – 2019. – Vol. 11, No. 24. – Article 7158. DOI: 10.3390/su11247158.
3. Dresner S. The Principles of Sustainability. – London: Earthscan, 2008. – 205 p.
4. Nigmatov A.N., Shivaldova N.S., Sultonova R.N. Barqaror rivojlanishning ekologik jihatlari. Qo‘llanma. – Toshkent: Bioekosan, 2014.

5. Mamashokirov S., Usmonov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalari. Qo‘llanma. – Toshkent: Fan, 2009.
6. Nigmatov A., Kulmatov R., Rasulov A., Muxamedov Sh. Barqaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari. Monografiya. – Toshkent: Spectrum Media Group, 2015. – 120 b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 154-son “2022–2026-yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/docs/-5936929
8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi huzuridagi Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari. Xorazm viloyatining yalpi hududiy mahsulot hajmi, sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish va xizmatlar sohasi bo‘yicha 2020–2025-yillar statistik ko‘rsatkichlari.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 6/6**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz